"T A S D I Q L A Y M A N"
"O'zmilliybank" AJ Toshkent
viloyat Bosh boshqarmasi
Toshkent shahar BXO mudiri v.v.b

H.Niyozov

Y I G' I L I S H B A Y O N I

"12" may 2026 yil Toshkent shahri

Yig'ilish raisi: H.Niyozov - Toshkent viloyat Bosh boshqarmasi Toshkent shahar BXO mudiri v.v.b.

Qatnashdilar: "O'zmilliybank" AJ Toshkent viloyati Bosh boshqarmasi Toshkent shahar BXO xodimlari qatnashdilar. Yig'ilishda 11 ta xodim qatnashdi.

Kun tartibiga qo'yilgan masala:

Korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirishda xodmlarining huquqiy ongi va malakasini oshirish.

O'zmilliybank AJ Toshkent viloyat Bosh boshqarmasi Toshkent shahar BXO mudiri H.Niyozov yig'ilish qatnashchilariga kun tartibidagi masala bilan tanishtirdi.

O'z so'zida ayrim banklarda mansabdor va moddiy javobgar shaxslariga nisbatan prokuratura tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilganligini ta'kidlab o'tib, korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dolzarbligi va bu borada xodimlarning javobgarligi, shaxsiy pozitsiyasi muhimligi xaqida aytib, xozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida bu kabi illatga qarshi kurash va uni oldini olishga qaratilgan kompleks tadbirlar olib borilayotganligi, bu davlat ichki siyosatining uzviy bir bo'lagi ekanligini ta'kidlab o'tildi.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar hamda hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar keltirilgan moddalari bo'yicha va korrupsiyaviy holatlar oqibatlari bo'yicha huquqiy tushunchalar berib o'tdi.

Bank qonunlarida xodimlarga belgilab berilgan talablari ya'ni, mijozlar bilan muloqotda bo'lganda xushmuomalalik bilan gaplashish, fuqarolarga qo'pollik qilmasdan ularning bank sohasidagi og'irini yengil qilish, me'yoriy hujjatlar va boshqa qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik yuzaga kelishi, bank mijozlari bilan valyuta amaliyotlari, kredit ajratilishi, kredit ta'minotini rasmiylashtirish va boshqa xizmatlar ko'rsatishda vakolat doirasidan chetga chiqmaslik, xizmat vazifasini suiste'mol qilmaslik, bank xizmatlari ko'rsatishda ta'magirlik, pora olish va berishda ishtirok etmaslik, qonunbuzilish holatlari oldini olish, bank siri talablarini buzmaslik, ishda me'yoriy hujjatlar talablariga qat'iy rioya etish talab qilindi.

Shuningdek, Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlardan ochiq xizmat xatlarida, maqolalarda, ma'ruzalarda foydalanmaslik, aloqa kanallari orqali bank siri haqida gapirmaslik, ma'lumotlarni himoyalash bo'yicha amaldagi qonunchilik va mazkur majburiyatnoma talablarini bajarish lozimligi aytib o'tildi.

So'z yakunida Toshkent shahar BXO mudiri v.v.b H.Niyozov jamoa o'z faoliyatida halol, vijdonan va ochiq biznes yuritishning yuqori me'yorlariga amal qilishimiz, korrupsiyani har qanday shakl va ko'rinishlarda rad etish prinsipiga rioya qilishimiz va jamiyatda korrupsiyaga qarshi madaniyat darajasini oshirishga hissa qo'shishni o'z burchimiz deb bilshimiz kerakligi to'g'risida yetkazdi.

Seminar yakuniga ko'ra quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Yig'ilishda yetkazilgan ma'ruzalar ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Ushbu seminar-yig'ilish bayoni bilan barcha xodimlari shaxsiy imzosini qo'ygan holda tanishtirilsin.

Bayonlashtiruvchi **S.M.Sabirova**

O'tkazilgan majlis bayoniga ilova

№	Tanishtirildi	Imzo
1	Niyozov Habibullo Namoz og'li	
2	Raxmanova Lola Tashpulatovna	
3	Bazarbayeva Gulnoza Xudayberdiyevna	
4	Xaitov Sanjarbek Jaxongirovich	
5	Yusupov Fayzullaxon Lazizxon og'li	
6	Sabirova Zulxumor Masharipovna	
7	Yuldashev Doniyor Dilmurod og'li	
8	Turabekova Dildora Mirxasilovna	
9	Razzoqova Sevara G`ulom qizi	
10	Saidova Robiya Dilshod qizi	
11	Xasanov Rahimbek Yusuf og'li	